



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

mashqlar va tavsiyalarda ustoz xonandalarning nafasi ufurib turishiga harakat qildim. Agar ushbu kichik izlanish yosh bo‘lg‘usi xonandalarning ilmiy, ijodiy, ijroviy salohiyatining rivojida ozgina foydali deb topilsa, men bir oddiy sozanda sifatida o‘zimni baxtiyor his qilardim”⁷⁸, - deb o‘z xizmatlariga kamtarona baho beradi.

O‘lmas Rasulovning “Ko‘zga aylansin ko‘ngil” risolasi so‘zboshisida san‘atshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning shunday e‘tirofi keltirilgan: “...musiqa alohida mo‘jizaviy, xususiy tilga egaki, uni tushunish hammaga ham nasib etavermaydi. Akademik, B.Asaf‘ev: “Musiqani hamma eshitadi, lekin hamma ham uni birdek idroklay olmaydi”, - deganida, haq edi. Tan olmay iloj yo‘q, manbai samodan bo‘lgan va inson uchun ruhiy g‘izo bo‘lgan bu san‘at tilini chinakamiga bilish hamda undan maqsadga muvofiq foydalanish anchagina mushkuldir. Bu tildan voqif bo‘lganlar esa aslida ahli donishlardir. Nazarimda, zamondoshimiz O‘lmas Rasulov ana shunday noyob iste’dod sohibidir”⁷⁹.

Nodir iste’dod egalari bo‘lgan yurtda yashayotganimizdan faxrlanishimiz, o‘z navbatida esa ularning ijodidan ko‘p narsani o‘rganishimiz lozim. O‘lmas Rasulovning yaratgan har bir kuy-qo‘shig‘i yoshlarimizni Ona Vatanni sevishga, azaliy urf-odatlarimizni ardoqlashga, ezgu ishlarni amalga oshirishga undaydi. Uning yaratgan o‘lmas asarlari milliy san‘atimiz taraqqiyoti yo‘lida o‘zining ulkan hissasini qo‘shib borishiga ishonchimiz komil.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.Mirziyoyev. Adabiyot, san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 4-avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 14-fevraldagi F-4849 farmoni.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro maqom san‘ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 7-sentyabr.
4. Rasulov O‘. An‘anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi. – T., 2006.
5. Rasulov O‘. Ko‘zga aylansin ko‘ngil. O‘zR Tibbiyot akademiyasi nashr., – T., 2012.
6. Rasulov O‘. Yakkaxon qo‘shiqchilik. – T., 2020.

O‘RTA OSIYO XALQLARI XVI ASRGACHA DAVRDAGI MUSIQA ILMINING RIVOJI

Nodira NURULLAYEVA,

*Buxoro ixtisoslashtirilgan
san‘at maktabi yetakchi o‘qituvchisi.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda musiqa pedagogikasining eng qadimgi davrlardan to XVI asrgacha davrdagi rivojlanishi va IX-XVI asrlarda Sharq allomalarining musiqa nazariyasi va musiqada shakllar rivoji borasida qo‘shgan hissasi haqida ma‘lumotlar berilgan.*

⁷⁸ O‘lmas Rasulov. “Yakkaxon qo‘shiqchilik”. – T., 2020, – B. 172.

⁷⁹ O‘lmas Rasulov. “Ko‘zga aylansin ko‘ngil”. – T., 2012, – B. 5-6.

Kalit soʻzlar: musiqa, davr, tarix, sozanda, xonanda, cholgʻu, xofiz, bastakor, pedagogika, taʼlim, tarbiya, sharq, madaniyat, sanʼat.

Аннотация. В данной статье представлена информация о развитии музыкальной педагогики в Узбекистане с древнейших времен до XVI века и о вкладе восточных ученых в развитие теории музыки и форм в музыке в IX-XVI веках.

Ключевые слова: музыка, эпоха, история, исполнитель, певец, исполнительство, хафиз, композитор, педагогика, образование, воспитание, восток, культура, искусство.

Tarixiy manbalar bizga milliy musiqiy madaniyatimiz uzoq moziy bilan bogʻlanganligini eslatib turadi. Qadimshunoslar tomonidan topilgan ashyoviy dalillar, tosh devorlarga chizilgan musiqiy sozlar va sozandalar, miniatyura koʻrinishidagi shohlar saroyidagi bazmlarda cholgʻuchilar tasviri, milliy musiqa sozlari va ijrochiligimizning tarixi naqadar qadimiyligidan dalolat beradi. Jumladan, “Afrosiyob xarobalaridan surnay, doyra, ushpullaklar ham topilgan boʻlib, eng muhimi, ushbu musiqa asboblari hozirgi shaklidan deyarli farq qilmaydi. Yoki Surxondaryoning Dalvarzintepa va qadimgi Xorazmning Qoʻyqirilganqalʼa, Tuproqqalʼa kabi yodgorliklaridan topilgan chang va boshqa musiqiy sozlar qoldiqlari ham dunyodagi eng qadimiy cholgʻu yodgorliklaridir”⁸⁰

Kishilik jamiyatining rivojlanishi tarixida pedagogika, jumladan musiqa pedagogikasi eng qadimiy ham ilm, ham sanʼat taʼlim-tarbiyasi sohasidir. Zero, musiqa pedagogikasi tarixi nihoyatda boy ilmiy-nazariy merosga ega.

Musiqa madaniyatining qadimiy ildizlari yozma maʼrifiy yodgorlik “Avesto” va zardoʻshtiylik dini anʼanalari bilan bogʻlanib ketadi. “Avesto”da tarbiya-hayotning eng muhim tayanchi, deb hisoblangan. Insonlar paydo boʻlganidan buyon uning tarixi doimiy ravishda tarbiya muammosini hal qilish bilan bogʻliq ekaniga guvohlik beradi. Chunki inson hayoti va turmush tarzi, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi, jamiyat taraqqiyotining asosida tarbiya turadi. Maʼlumotlarga koʻra “Avesto” eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan boʻlib, toʻliq kitob holida eramizdan avvalgi I asrda shakllangan”⁸¹

Qadimiy va boy tarixga ega oʻzbek milliy musiqa madaniyati targʻibotini amalga oshirish ushbu soxa taʼlim-tarbiyasi bilan maxsus shugʻullanish maqsadida asrlar davomida mukammal musiqa maktablari mukammal tarzda shakllangan hamda rivoj topib kelgan. Bu maktablarda musiqa taʼlim tarbiyasi bevosita va bilvosita amalga oshirib borilgan boʻlib, ularning faoliyat mazmunida musiqa haqiqiy maʼnodagi tarbiya vositasi ekanligi oʻz ifodasini topgan.

Tarixiy manbalarda IX-XII asrlarda Oʻrta Osiyo musiqiy madaniyatida oʻzgarishlar davri boʻlganligi bayon etiladi. Biroq, bu davrlarda ijod qilgan sozandalar, hofizlar va bastakorlarning nomlari hamda ularning ijodiy faoliyatlari haqida juda kam maʼlumotlar saqlanib qolingan.

Sharq, jumladan Markaziy Osiyo musiqa sanʼati va madaniyati, uning anʼanalari qadimiy tarixga ega. Sharq xalqlari anʼanaviy-kasbiy musiqasi asoschisi sifatida ulugʻlarga musiqashunos, bastakor, xofiz va shoir Borbad

⁷⁹ Shirinov T.Sh.. Tariximiz etyudlari. – Toshkent. “Sharq”.- B. 336.

⁸¹ Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. Toshkent. “Oʻqituvchi 1996. –B. 13..

Marvaziy (yoki Faxlobod) VI-VII asrlarda o'zining musiqa maktabini yaratdi. Eron shohi Xusrav Parviz saroyida xizmat qilgan Borbad xalq kuylarini maxorat bilan ijro etish, xofizlik qilish bilan birga yosh musiqachilarning ta'lim-tarbiyasi bilan ham jiddiy shug'ullangan. Tarixchi olimlarning yozma manbalariga asoslangan holda fikr yuritilsa, jumladan, VI-VII asrlarda yashab ijod etgan ilk kasbiy musiqashunoslardan biri O'rta-Osiyolik Borbad xaqida ma'lumotlarda uni musiqa san'atining asoschilaridan bo'lib, bastakorlik, shoirlik, sozandalik va hofizlik borasida tengi yo'q mashhur san'atkor bo'lganligi ta'riflanadi. Borbad qator madhiya va tarixiy qo'shiqlar, harbiy mavzudagi taronalar ijod etgan. Shunisi muhimki, Borbad xalq kuylari asosida o'sha davrda kasbiy musiqachilik an'anasini boshlab bergan, ijrochilik mahoratida yuksak salohiyatga erishgan san'atkor edi.

Shu bilan birga Borbad "Ustoz-shogird" an'anasini boshlab bergan murabbiy ham bo'lgan. Sosoniylar sulolasi (milodiy 224-651yy) davrida kasbiy cholg'uchi-sozandalardan Noqus, Romtin, Sarkab, Sarkash, Navogar va boshqalar Borbad musiqa maktabida saboq olib, so'ngra uning an'anasini yuksak san'at, mahorat, iste'dod bilan davom ettirganlar.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda madaniyat, ilm-fan, san'at va adabiyot Islom madaniyati yo'nalishida rivojlandi hamda taraqqiy etdi. Bu davrda Ahmad al-Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil al-Buxoriy, At-Termiziy, Abdullo Ro'dakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro kabi yuzlab fozildonishmandlar yashab, ijod qildilar. Zabardast daholar-jahon ilmi, madaniyati yulduzlari qoldirgan ulkan meros hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Donishmandlarning falsafiy-estetik qarashlari ta'limotlar tarzida shakllanib, borliqni mushohada etishda, nafosat (estetik) qadriyatlarni baholashda, inson ma'naviy kamolotida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Sharq allomalari musiqa ilmi rivojlanishiga IX-XVI-asrlarda, ayniqsa musiqa nazariyasi va musiqada shakllar masalasi muammolarini yechish borasida ulkan hissa qo'shdilar. Musikashunoslik, uning nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanib ulkan tarixiy musiqiy-pedagogik meros qoldirdilar. Jumladan, X asrning buyuk qomusiy olimi, musiqashunoslik fanining ulug' kashfiyotchisi Abu Nasr al-Forobiy (873-950) bo'lib, uning musiqa sohasida yaratgan ta'limotlari asosida Yevropa olimlari ham qator asarlar yaratganlar.

Abu Nasr Farobiy (to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Uzalik ibn Tarxon al-Forobiy) (milodiy 873 yil) da Shosh-Toshkentga yaqin Forob (O'tror) degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Forobda boshlang'ich ta'limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqandda ta'lim olganligi haqida ma'lumotlar bor. Farobiy Bog'dodda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tabiiyot, huquq, tishunoslik bilan shug'ullangan. Avval O'trorda, bo'lib, so'ngra Bog'dodga borib unda falsafa, tabiiyot, musiqa fanlari bilan chuqur shug'ullangan. O'rta asr falsafiy fikr taraqqiyoti mutaffakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Asqarov A. O'zbekiston xalqining tarixi. 2-t. – T.: “O'qituvchi”, 1993.
2. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent: O'zadabiyotnashr, 1963.
3. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqiy ijodi. – Toshkent: “G'. G'ulom” 1994.
4. История вокального и хорового исполнительства в Узбекистане. – Toshkent, 1991.
5. Qodirov R. G. Musiqa psixologiyasi. – Toshkent: “Musiqa” O'z.DK. 2005.
6. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. – Toshkent: “G'afur G'ulom” nashriyoti. 1995.
7. Петрушин В. И. Музыкальная психология. – Москва: VLADOS. 1997.
8. Nurullayev F.G., Nurullayeva N.K. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.

MANBASHUNOSLIKGA BIR NAZAR

D.A.AMONOV,

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi
III bosqich PhD doktoranti, musiqashunos.*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada musiqiy ilmga katta hissa qo'shgan atoqli qomusiy olimlarning ijodiy mahsuli bilan bir qatorda, ushbu manbalarni atroflicha o'rganib taqiq qilgan manbashunoslarning ijodiy izlanishlari keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Risola, musiqiy, meros, ilm, tadqiqot, nazariy, manbashunoslik, nashr, asar, olim, ma'lumot, sharqshunos, musiqashunos, Forobiy, Ibn Sino.*

***Аннотация.** В данной статье даётся обзор средневековых трактатов о музыке, в месте стем особое внимание уделяется исследованию учёных востоковедов, изучавших эти труды.*

***Ключевые слова:** Трактат, музыка, наследие, наука, исследование, теоретическое, востоковедение, издание, труд, ученый, информация, востоковед, музыковед, Фараби, Ибн Сина.*

***Annotation.** In this article, along with the work of well-known scientists-encyclopedists who have made a great contribution to the science of music, the creative research of votakovologists who have comprehensively studied these sources is presented.*

***Key words:** Treatise, music, heritage, science, research, theoretical, oriental studies, publication, work, scientist, information, orientalist, musicologist, Farabi, Ibn Sina, translation.*

O'rta asr Sharq olimlari dunyo musiqashunosligining rivojiga katta hissa qo'shganlar, ularning fikrlari, nazariy qarashlari faqatgina Sharqda emas, yevropa olimlarining ham doim qiziqishiga sabab bo'lgan. Biroq faqat arab tilida yozilgan qo'lyozmalar ma'lum bo'lgan va shuning uchun ular faqat arab musiqasi bilan bog'liq deb hisoblanilgan. So'z O'rta asrda Sharqning yetuk bilimdonlarining musiqiy ijodlari haqida ketmoqda. X–XIII asrlarda asosan arab tilida yaratilgan risolalarda mantiqiy, nazariy, «jamlar» – lad tushunchalari, musiqashunoslikka oid atamalar yaratilgan. Keyingi X–XV asrlar davrlarga qaraydigan bo'lsak – Sharq musiqashunosligida Markaziy Osiyodan chiqqan ulamo va mutafakkirlar musiqiy ilmning shakllanishiga va uning rivojiga salmoqli hissa qo'shganlar. Jumladan: – Al-Kindi (taxminan 800-870, Bag'dod)[1; 297-312], Abu Nasr Forobi (870-